

Izlash



[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi TARKIBI](#)

2-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "YO'L XARITASI"](#)

3-ILOVA
[2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2022 yildagi PQ-237-son

Kuchga kirish sanasi

07.05.2022

Qo'shimcha axborot

Ulashish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

XALQARO QISHLOQ XO'JALIGI UNIVERSITETINI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan **strategiyasi** ijrosidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi doirasida agrar soha uchun xalqaro talab va standartlarga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, bu borada yetakchi xorijiy universitetlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish maqsadida:

1. Qishloq xo'jaligi vazirligining Buyuk Britaniya Qirollik qishloq xo'jaligi universiteti (Royal Agriculture University, keyingi o'rinlarda — hamkor universitet) bilan hamkorlikda Toshkent shahrida Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini (keyingi o'rinlarda — Universitet) tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlansin.

2. Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

a) Universitet faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi:

agrar sohani rivojlantirish, jahon tendensiyalarini va tajribasini aks ettirishga moslashgan "ilmga asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan (science-based, practice-oriented) ta'lim" tamoyili asosida va milliy an'analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlash;

ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, agrotexnologiya va ekologik barqarorlik amaliyotlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida biznes va operativ samaradorlikni ishlab chiqishni qamrab oladigan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

qishloq xo'jaligi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda o'quv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik o'rnatish, qo'shma ta'lim dasturlari va loyihalarni amalga oshirish;

b) Universitet bitiruvchilariga hamkor universitetning diplomi beriladi.

3. Belgilab qo'yilsinki:

Universitet Qishloq xo'jaligi vazirligi va Buyuk Britaniya Qirollik qishloq xo'jaligi universiteti tomonidan ta'xis etiladigan to'liq akademik va moliyaviy mustaqil bo'lgan davlat ishtirokidagi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi;

Universitet O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri va davlat tilida nomi tushirilgan muhr, bank hisobvaraqlari, shtamp va boshqa rekvizitlarga ega bo'ladi;

Universitet tomonidan beriladigan diplom O'zbekiston Respublikasida tan olinadi;

Universitetda ta'lim grant va to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

Universitet jalb etilgan xorijiy mutaxassislar, mahalliy xodimlarning ish haqi va boshqa to'lovlar miqdorini mustaqil belgilaydi;

Universitet rektori Kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda qishloq xo'jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Bunda, Universitet rektori O'zbekiston Respublikasi tomonidan ko'rsatiladi.

4. Universitetga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son va "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarorlarida belgilangan akademik, moliyaviy va tashkiliy mustaqillikka oid tartib-taomillar tatbiq qilinadi.

5. Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Universitetda davlat muassasasi shaklidagi xo'jalik hisobidan moliyalashtiriladigan Qishloq xo'jaligi sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi (Capacity Building Center)ni tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat va xususiy sektorda faoliyat yurituvchi soha vakillari, shuningdek, fermer xo'jaliklari, klasterlar rahbarlari va mutaxassislarini xorijiy tajribalar asosida qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

mahalliy qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan oliy va professional ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy salohiyatni yuksaltirishga hissa qo'shish, jumladan, tadqiqotchilar uchun zamonaviy tadqiqotlar olib borish va nufuzli jurnallarda maqolalar chop etishni qo'llab-quvvatlovchi o'quv kurslari tashkil etish;

xalqaro tendensiyalarni hisobga olgan holda manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini aniqlash uchun doimiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish.

6. Qishloq xo'jaligi vazirligi 2022-yil yakuniga qadar Universitetda xalqaro moliya institutlarining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan talabalar, magistrant va ilmiy izlanuvchilar hamda professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlanmalari asosida startap-loyihalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish bilan shug'ullanuvchi davlat muassasasi shaklidagi "Agro Innovation Incubator" markazini tashkil etsin.

7. Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin hamda uning vakolatlari etib quyidagilar belgilansin:

Universitetga talabalarni qabul qilish parametrlarini, Universitetdagi ta'lim shakli, turi va tilini belgilash;

Universitetda yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha doktorantura ixtisosliklarini ochish;

Universitet rahbariyati va xodimlari hamda professor-o'qituvchilarini ishga qabul qilish tartibini belgilash, shuningdek, ularning faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

xorijiy va mahalliy yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan talabalarning akademik mobilligini ta'minlash hamda qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish;

Universitetni rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli strategik rejalarini tasdiqlash;

bakalavriat, magistratura va doktoranturaga qabul qilish shartlarini, shuningdek, talabalarni o'qishga qabul qilishda test sinovlari topshiriladigan fanlar majmuasini va o'qish uchun to'lov miqdorini belgilash;

Universitetning o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

Universitetning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish bo'yicha qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

8. Universitet faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

9. Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

Yevropa Ittifoqining qishloq xo'jaligi sohasi uchun budget ko'magi dasturidan 6 mln AQSh dollari miqdoridagi va Jahon bankining 11 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari;

talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik, ilmiy faoliyat va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari va muassislar mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

10. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

11. Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev):

a) bir oy muddatda Universitet ustavining tasdiqlanishi va uning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin. Bunda:

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan kelishuvlar asosida o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'ysin;

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2022/2023 o'quv yili uchun qabul jarayonini tashkil etsin;

Universitetning vaqtinchalik binosini rekonstruksiya qilish va jihozlash loyihasini ishlab chiqsin, o'rnatilgan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazsin hamda xalqaro moliya institutlarining grant mablag'lari hisobidan binoda ta'mirlash-qurilish ishlarini tashkillashtirsin;

zarur bo'lgan o'quv, ilmiy laboratoriyalar, o'quv adabiyotlari ro'yxatini shakllantirsin va xaridini tashkil etish choralari ko'rsin;

Universitetni tashkil etish davrida uning faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashkiliy, yuridik, iqtisodiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, moddiy-texnik va boshqa masalalarni hal etishda ko'maklashsin;

[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[1-ILOVA](#)
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi TARKIBI](#)

[2-ILOVA](#)
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "YO'L XARITASI"](#)

[3-ILOVA](#)
[2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari](#)

b) uch oy muddatda:

Yevropa Ittifoqining qishloq xo'jaligi sohasi uchun budget ko'magi dasturidan 300 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni jalb etgan holda yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan Universitet professor-o'qituvchilarini qisqa muddatli qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida bitimlarni imzolasin;

soha mutaxassislarini, shuningdek, fermer xo'jaliklari, klasterlar rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini tasdiqlasin;

Qishloq xo'jaligi sohasidagi kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha qisqa muddatli professional o'qitish kurslari to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin;

v) Qishloq xo'jaligi sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin va uning faoliyatini 2023/2024 o'quv yilidan boshlab yo'lga qo'ysin;

g) 2024/2025 o'quv yiliga qadar xalqaro moliya institutlarining grant mablag'lari hisobidan yetakchi loyiha va pudratchi kompaniyalarni jalb etgan holda Universitet yangi o'quv kampusi qurilishini ta'minlasin.

12. Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va Oliy attestatsiya komissiyasining 2023-yil 1-yanvardan boshlab Universitet ilmiy salohiyatini oshirish uchun belgilangan tartibda ixtisoslashgan ilmiy kengash tuzish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Bunda, ixtisoslashgan ilmiy kengash a'zolarining 50 foizi xalqaro hamkorlar va xorijiy vatandoshlar orasidan tanlanadi.

13. Qishloq xo'jaligi vazirligi Universitetni Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 2-uy manziliga operativ boshqaruv huquqi asosida joylashtirsin.

Yangi bino qurilgunga qadar Universitetga Toshkent davlat agrar universitetining sport majmuasi, talabalar turar joyi hamda o'quv laboratoriyalaridan vaqtincha foydalanishga ruxsat berilsin.

14. Tashqi ishlar vazirligi Qishloq xo'jaligi vazirligining viza talabnomalariga binoan Universitetga taklif qilinadigan chet ellik professor-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ularning oila a'zolari uchun kirish vizalari konsullik yig'imlari va haqiqiy xarajatlarning o'rnini qoplash hisobidan yig'imlar undirilmasdan rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

15. Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov) bilan birgalikda hududlarda Universitet faoliyati va 2022/2023 o'quv yili uchun qabulni samarali tashkil etish maqsadida targ'ibot ishlarini amalga oshirsin.

16. "El-yurt umidi" jamg'armasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev) bilan birgalikda Universitetning mahalliy professor-o'qituvchilari, magistrantlari va talabalarini "El-yurt umidi" jamg'armasi hisobidan xorijiy yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish, stajirovka va o'qishga yuborish choralarini ko'rsin.

17. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligiga mazkur qarorning mazmun-mohiyatini, qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi doirasida agrar soha uchun xalqaro talab va standartlarga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

18. Qishloq xo'jaligi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

19. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib qishloq xo'jaligi vaziri J.A.Xodjayev belgilansin.

Mazkur qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosari Sh.M. G'aniyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 7-may,
PQ-237-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 7-maydagi
PQ-237-son qaroriga
1-ILOVA

Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi

TARKIBI

Oldingi tahrirga qarang.

- Jamshid — qishloq xo'jaligi vaziri — Kuzatuv kengashi raisi
Xodjayev
- Alisher — qishloq xo'jaligi vaziri maslahatchisi — Kuzatuv kengashi raisi o'rinbosari
Shukurov

3. Ilxom Norqulov — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining birinchi o'rinbosari
4. Raximjon Xakimov — oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari
- 4.1. Usmon Sharifxo'jayev — maktabgacha va maktab ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari
5. Alisher To'rayev — qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari — Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bosh direktori
6. Ngo Buntan — Qishloq xo'jaligi qirollik universiteti rektori (Royal University of Agriculture, Buyuk Britaniya) (kelishuv asosida)
7. Yozas Augutis — Buyuk Vitovt universiteti rektori (Vytautas Magnus University, Litva) (kelishuv asosida)
8. Xose Xulian Garde Lorez-Brea — Kastiliya La-Mancha universiteti rektori (University of Castilla-La Mancha, Ispaniya) (kelishuv asosida)
9. Alan Frans — ta'lim bo'yicha Buyuk britaniyalik xalqaro ekspert (kelishuv asosida)
10. (kelishuv asosida) — agroklastlar va qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari rahbarlari
11. (kelishuv asosida) — Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti rektori — Kuzatuv kengashi kotibi

Izoh: Kuzatuv kengashi tarkibiga qishloq xo'jaligi vaziri tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2023-y., 07/23/216/0457-son)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 7-maydagi
PQ-237-son qaroriga
2-ILOVA

Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalash-tirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
I. Universitetni tashkil etish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar					
1.	Universitetni tashkil etish yuzasidan xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish.	Buyuk Britaniya, Litva, Ispaniya va boshqa davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan muzokaralar olib borish va ular bilan uzoq muddatli kelishuvlarni tuzish.	2022-yil iyun	-	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov), Tashqi ishlar vazirligi (Norov)
2.	Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini (keyingi o'rinlarda — Universitet) tashkil etish.	Universitet ustavini ishlab chiqish, tasdiqlash hamda uni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish. Universitet tuzilmasini shakllantirish va tasdiqlash.	2022-yil iyun	-	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov)
3.	Universitetni yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan tajribali va malakali mutaxassislar bilan to'ldirish.	Xorijiy va mahalliy malakali mutaxassislar (professor-o'qituvchilar)ni ochiq tanlov asosida saralab olish.	2022-yil iyun — oktyabr	-	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalash-tirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
4.	Talabalarni qabul qilish jarayonini tashkil etish.	Universitetning ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari kesimida qabul parametrlarini belgilash; kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish; kirish imtihonlarini o'tkazish va talabalarni o'qishga qabul qilish.	2022-yil avgust — oktyabr	Yevropa Itifoqi (YI) va Jahon banki mablag'lari	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov)
II. O'quv jarayonlarini samarali tashkil etish					
5.	Universitetda o'quv jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.	Ta'lim yo'nalishlarini belgilash, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini tasdiqlash hamda o'qitish muddatlari va talabalarning o'quv mashg'ulotlarida qatnashish tartibini belgilash.	2022-yil avgust — oktyabr	-	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev)
6.	Ta'lim sifatini va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish maqsadida Universitetni zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari, zaruriy aloqa, axborot, transport va boshqa vositalar bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar.	Reja-grafik asosida	YI va Jahon banki mablag'lari	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev)
7.	Ta'lim jarayoni uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va joriy etish hamda axborot-resurs markazlari fondlarini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar.	Reja-grafik asosida	YI va Jahon banki mablag'lari	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev)
8.	Xorijiy yetakchi oliy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda xalqaro grant loyihalarida ishtirok etish.	Kompleks chora-tadbirlar.	Doimiy	-	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)

[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi TARKIBI](#)

2-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "YO'L XARITASI"](#)

3-ILOVA
[2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari](#)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalash-tirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
9.	Universitetda tashkil etiladigan o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonida xorijiy universitetlarning ilg'or elektron ma'lumotlar bazalari (TOP-DATABASES)dan foydalanishga sharoit yaratish.	O'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonini tegishli o'quv-metodik, ilmiy-metodik qo'llanmalar va ilmiy nashrlar bilan ta'minlash choralari ko'rish. Talabalar ta'lim jarayonida foydalanishi uchun ilg'or elektron ma'lumotlar bazalariga ulanish. Talabalar uchun zamonaviy, RFID texnologiyasi asosida raqamli kutubxona (Electronic Library Online) tashkil etish va uni zamonaviy o'quv, ilmiy adabiyot va axborot resurslari bilan boyitib borish.	2022-yil oktyabr 2022-2023-yillar Doimiy	YI va Jahon banki mablag'lari hamda Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
10.	Universitet talabalarining mutaxassisliklari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar hamda malaka amaliyotlarini tashkil etish.	Tashkilotlar bilan talabalarni amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarishga biriktirish bo'yicha shartnomalar tuzish. Mazkur shartnomalarga muvofiq amaliy mashg'ulotlar va malaka amaliyotini o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etish.	2023-yil may Reja asosida	Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), manfaatdor vazirlik va idoralar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari
11.	Xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va talabalarining amaliy ko'nikmalarini oshirish tizimini joriy etish va takomillashtirish.	Xalqaro kompaniyalar va korxonalarda amaliyot o'tash tizimini joriy etish. Talabalarni ixtisoslik sohasiga amaliyot orqali o'rgatish tizimini joriy etish.	2023-2024-yillar	Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev)
III. Universitetda xalqaro hamkorlik hamda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish					

[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi TARKIBI](#)

2-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "YO'L XARITASI"](#)

3-ILOVA
[2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari](#)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalash-tirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
12.	Ilmiy-innovatsion faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish.	<p>Professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish.</p> <p>Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini Scopus, Web of Science bazasidagi jurnallarda chop etish. Natijalarni ishlab chiqarish sohasida amaliyotga keng joriy etish choralarini ko'rish.</p>	<p>Har o'quv yilining sentyabr-oktyabr oylari</p> <p>Doimiy</p>	Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari	<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev),</p> <p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)</p>
13.	Universitetning ilmiy salohiyatini oshirib borish, Universitet professor-o'qituvchilarning xalqaro ilmiy seminar va konferensiyalarda ishtirokini hamda qishloq xo'jaligi sohasida yetakchi xorijiy universitet, institut va aqliy markazlarda malaka oshirishini ta'minlash.	<p>Professor-o'qituvchilar hamda iqtidorli talabalarning xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan nufuzli tadbirlar, jumladan, konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda muntazam ishtirok etishini ta'minlash.</p> <p>Universitetning ilmiy salohiyatini oshirish uchun mutaxassislik yo'nalishlaridan kelib chiqib yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.</p> <p>Xorijiy davlatlarning universitetlari, jumladan, Qirollik qishloq xo'jaligi universiteti (Buyuk Britaniya) va Buyuk Vitovt universiteti (Litva) hamda ilmiy markazlar bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib borishni yo'lga qo'yish.</p>	2023-yil may oyidan boshlab doimiy	Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari	<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi TARKIBI](#)

2-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "YO'L XARITASI"](#)

3-ILOVA
[2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari](#)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalash-tirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
14.	Universitet professor-o'qituvchilari va talabalari tomonidan yaratilgan ilm-fan yutuqlarini doimiy ravishda tijoratlashtirish hamda moliyaviy resurslarni jalb etish ishlarini tashkil etish.	Innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish yuzasidan ilg'or xorijiy tajribani o'rganish. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari, agroklastlar hamda oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyat yuritadigan korxonalarining mavjud va kelgusi ehtiyojlarini o'rganib chiqib, tahlil qilish.	Doimiy	-	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), manfaatdor vazirlik va idoralar

[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi TARKIBI](#)

2-ILOVA
[Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "YO'L XARITASI"](#)

3-ILOVA
[2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari](#)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 7-maydagi
PQ-237-son qaroriga
3-ILOVA

2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari

T/r	Ta'lim yo'nalishi
1.	Aqlli qishloq xo'jaligi (Smart Agriculture)
2.	Agronomiya
3.	Biotexnologiya
4.	Aeroiqisodiyot
5.	Chorvachilikni rivojlantirish
6.	Oziq-ovqat xavfsizligi
7.	Agrologistika

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va muassis bilan kelishilgan holda yangi ta'lim yo'nalishlari ochilishi mumkin.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.05.2022-y., 07/22/237/0394-son; 10.07.2023-y., 07/23/216/0457-son)